

**SIGIRLARNING ISTE'MOL QILGAN OZUQASINI SUT BILAN  
QOPLASH DARAJASI VA SIGIRLARNI MSHINADA SOG'ISHGA  
YAROQLILIGINI O'RGANISH**

***M.B.Norboev, Xalilov J.Z.***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

***Annotatsiya:*** Maqolada naslchilik fermer xo'jaligi sharoitida Sigirlarning iste'mol qilgan ozuqasini sut bilan qoplash darajasi va sigirlarni mshinada sog'ishga yaroqliligini o'rganilib, guruhlararo farq ko'zatilgan.

*Faqat 3 guruh sigirlarning ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi ularda iste'mol qilgan ozuqasini sut bilan qoplash darajasi va mshinada sog'ishga yaroqlilik darajasi yuqori ekanligi o'rganildi.*

***Kalit so'zlar:*** Sigir, sut, ozuqa, yelin, so'rg'ich, indeks, morfofunktsional.

Sigirlardan foydalanishning samaradorligini baholashda ularning ozuqani sut bilan qoplash xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. 1-jadvalda tajriba guruhlaridagi sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash darajasi keltiriladi.

1-jadval

*Tajriba guruhlaridagi sigirlarni ozuqani sut mahsuldorligi bilan qoplash ko'rsatkichlari*

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Guruhlar</i>		
	I	II	III
<i>Sog'in davrining dastlabki 90 kunida sarflangan ozuqa birligi, kg</i>	1315,4	1401,44	1486,71
<i>Sut miqdori, kg</i>	1244,4	1350,7	1441,7
<i>4%-li sut miqdori, kg</i>	1146,1	1237,8	1313,4

Har 1 kg tabiiy yogʻlilikdagi sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi	1,06	1,04	1,03
Har 1 kg 4%-li sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi	1,15	1,13	1,13
Har 100 ozuqa birligiga olindi, kg:			
tabiiy yogʻlilikdagi sut	94,60	96,38	97,04
4%-li miqdori	87,13	88,32	88,40

1-jadval maʼlumotlari tahlilining koʻrsatishicha, yuqori sut mahsuldorligiga ega III guruh sigirlari ozuqani sut bilan boshqa guruhlardagi tengqurlariga nisbatan yaxshi darajada qopladilar. Masalan, III guruh sigirlari I va II guruhlardagi sigirlarga nisbatan 1 kg tabiiy yogʻlilikdagi sut ishlab chiqarish uchun tegishli ravishda 2,9 va 1,0% kam ozuqa birligi sarfladilar va 1 kg 4%-li sut ishlab chiqarish uchun I guruhdagi sigirlarga nisbatan 1,8% kam ozuqa birligi sarflab, II guruhdagi tengqurlari bilan bir xil koʻrsatkichga ega boʻldilar. Lekin III guruh sigirlari har 100 ozuqa birligiga I va II guruhlardagi tengqurlariga nisbatan tegishli ravishda 2,44 (2,53%) va 0,66 kg (0,68%) kg koʻp tabiiy yogʻlilikdagi hamda 1,27 (1,47%) va 0,08 (0,10%) kg koʻp 4%-li sut ishlab chiqardilar.

II guruh sigirlari I guruhdagi tengqurlariga nisbatan 1 kg tabiiy yogʻlilikdagi sut ishlab chiqarish uchun 1,9% va 1 kg 4%-li sut ishlab chiqarishga 1,8% kam ozuqa birligi sarfladilar, lekin har 100 ozuqa birligiga 1,78 (1,88%) kg koʻp tabiiy yogʻlilikdagi va 1,19 (1,36%) kg koʻp 4%-li sut ishlab chiqardilar.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash darajasi uzviy ravishda ularning sut mahsuldorligiga bogʻliq ekanligini koʻrsatdi. Yuqori sut mahsuldorligiga ega III guruh sigirlari yaxshi darajada ozuqani sut bilan qoplash xususiyatiga ega boʻldilar hamda ular I va II guruhlardagi tengqurlariga nisbatan har 100 ozuqa birligi hisobiga tabiiy yogʻlilikdagi va 4%-li

sut ishlab chiqardilar. Bu esa yuqori sut mahsuldorligiga ega sigirlardan sutbop podalarda foydalanish samarali ekanligidan dalolat beradi.

### Sigirlar yelinining morfofunktsional xususiyatlari

Sigirlarning mashinada sog‘ishga yaroqlilik darajasini baholashda ular yelinining morfofunktsional ko‘rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. 2-jadvalda tajriba guruhlaridagi sigirlarning yelin ko‘rsatkichlari keltiriladi.

2-jadval

*Tajriba guruhlaridagi sigirlarning yelin o‘lchamlari, sm*

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%	X±Sx	Cv,%
Yelin aylanasi	103,4±0,93	3,38	107,2±0,93	3,25	110,3±0,89	3,01
Yelin uzunligi	26,4±0,66	9,31	28,9±0,56	7,30	30,8±0,44	5,38
Yelin eni	23,2±0,45	7,25	26,7±0,55	7,75	28,6±0,43	5,63
Oldingi qism chuqurligi	23,7±0,39	6,09	25,6±0,40	5,88	27,4±0,48	6,62
Orqa qism chuqurligi	25,1±0,28	4,12	27,4±0,40	5,46	29,4±0,48	6,13
Yelinning shartli hajmi, sm <sup>3</sup>	2450,6	-	2744,3	-	3022,2	-
Oldingi so‘rg‘ichlar uzunligi	7,24±0,04	2,25	7,43±0,06	2,95	7,65±0,08	4,07
Orqa so‘rg‘ichlar uzunligi	6,65±0,05	2,89	6,85±0,06	3,35	7,06±0,08	4,24
So‘rg‘ichlar diametri	2,24±0,01	2,38	2,29±0,04	5,82	2,37±0,02	3,72

Yelin indeksi	42,8±0,23	2,06	43,4±0,26	2,26	43,8±0,25	2,15
Sut berish tezligi, kgG‘daqiqa	1,21±0,03	10,3	1,36±0,03	9,12	1,41±0,03	8,86

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, yuqori tirik vaznga ega bo‘lgan III guruh sigirlarida yelin ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘ldi. Masalan, III guruh sigirlarining yelin aylanasi I va II guruhlardagi tengqurlaridan tegishli ravishda 6,9 (R>0,999) va 3,1 (R>0,90) sm, yelin uzunligi 4,4 (R>0,999) va 1,9 (R>0,99) sm, yelin eni 5,4 (R>0,999) va 1,9 (R>0,99) sm, oldingi qism chuqurligi 3,7 (R>0,999) va 1,8 (R>0,99) sm, orqa qism chuqurligi 4,3 (R>0,999) va 2,0 (R>0,99) sm uzun, yelinning shartli hajmi 571,6 va 277,9 sm<sup>3</sup> yuqori, oldingi so‘rg‘ichlar uzunligi 0,41 (R>0,999) va 0,22 (R>0,99) sm, orqa so‘rg‘ichlar uzunligi 0,41 (R>0,99) va 0,21 (R>0,99) sm, so‘rg‘ichlar diametri 0,13 (R>0,999) va 0,08 (R>0,999) sm, yelin indeksi 1,0 (R>0,99) va 0,4%-ga, sut berish tezligi 16,53 (R>0,999) va 3,67%-ga yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi.

II guruh sigirlari yelinining aylanasi I guruh sigirlaridan 3,8 (R>0,99) sm, uzunligi 2,5 (R>0,99) sm, eni 3,5 (R>0,999) sm, oldingi qism chuqurligi 1,9 (R>0,999) sm, orqa qism chuqurligi 2,3 (R>0,99) sm, yelinning shartli hajmi 293,7 sm<sup>3</sup>, yelin indeksi 0,6% va sut berish tezligi 12,4% (R>0,999) yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimizda olingan natijalar barcha guruhlardagi sigirlar yelinining morfofunktsional ko‘rsatkichlari ular mashinada sog‘ish talablariga javob berishini va bu ko‘rsatkichlar ularning sut mahsuldorlik darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Yuqori sut mahsuldorligiga ega III guruh sigirlarida bu ko‘rsatkichlar nisbatan yuqori darajada bo‘ldi, bu esa ularning mashinada sog‘ish talablariga yuqori darajada javob berish xususiyatlariga ega ekanligidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akmalxanov Sh.A., Nosirov U.N., Xidirov I., Shadmanov S.I. Рекомендации по созданию высокопродуктивных стад коров основных

- плановых пород молочного направления, технологии интенсивного выращивания и откорма бычков до высокой живой массы // Т., 1996. - С. 25.
2. Shaymurodov N.T. Golshtinlashtirilgan qora-ola zotli turli vaznda tug'ilgan buzoqlarning o'sish, rivojlanishi va mahsuldorlik belgilari // Q.x.f.n. diss., T. – 2008. – В.41-42.
  3. Ballasov U.Sh. Golshtinlashtirilgan sigirlar onalarining sut mahsuldorligiga bog'liq ravishda xo'jalik foydali belgilarining o'zgarishi // Q.x.f.nomzodi diss.. – Toshkent. – 1999. – В. 79.
  4. Безгин В.И., Поварова О.В. Влияние возраста и живой массы телок при первом оплодотворении на молочную продуктивность // Зоотехния – 2003. - № 1. - С. 24-25.
  5. Гвазава Д.Г. Формирование продуктивных качеств коров черно-пестрой породы в зависимости от интенсивности роста по периодам выращивания до первого отела в возрасте 22-23 месяцев. Автор.дисс....канд. с/х наук – Балашиха. – 1993. – С.19-21.
  6. Gridina S.L. Vosproizvoditelnaya sposobnost cherno-pestrykh korov uralskogo tipa // Зоотехния – 2005. - № 3. - С. 30-31.
  7. Кайдалов А., Архипова З. Оптимальная структура рациона для ремонтных телок // Молочное и мясное скотоводство – 1991. - № 3. – С.12.
  8. Калашников А. Повышение полнотсенности кормления коров в зимний период // Молочное и мясное скотоводство – 1989. - № 1. - С. 28.
  9. Свиридова Т.М., Зелепухин А.Г., Зеленский А.П., Залсман В.А., Журкина Ж.А. Оптимизация энергопротеинового отношения в рационах высокопродуктивных коров // Зоотехния – 2001. - № 6. - С. 10-13.